KONFLIKTLARNI BOSHQARISH. BULLING VA TAJOVUZNING OLDINI OLISH MEHANIZMINING SINF BOSHQARUVDAGI O'RNI

Temirova Fotima Xusanovna
Alisherova Muborak Ahmad qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instititi Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabalari
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24194287

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy maktab muhitida o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning psixologik-pedagogik sabablari, konfliktlarni konstruktiv hal etish strategiyalari hamda bulling va tajovuzkor xulq-atvorning oldini olish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida xavfsiz va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: konflikt, bulling, kiberbulling, tajovuzkorlik, mediatsiya, psixologik xavfsizlik, sinf boshqaruvi.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ruhiy va jismoniy xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biridir. Sinf jamoasi turli xarakter, tarbiya va dunyoqarashga ega shaxslardan tashkil topganligi sababli, o'zaro kelishmovchilik va konfliktlar tabiiy jarayon hisoblanadi. Biroq o'z vaqtida boshqarilmagan oddiy ziddiyatlar surunkali tazyiq — bulling hamda tajovuzkor xulq-atvorga aylanib ketishi mumkin. Shu bois pedagogning konfliktlarni boshqarish madaniyatiga ega bo'lishi sinf boshqaruvining muhim tarkibiy qismidir.

Аннотация. В данной статье анализируются психолого-педагогические причины возникновения конфликтов между учащимися в современной школьной среде, стратегии конструктивного разрешения конфликтов, а также механизмы профилактики буллинга и агрессивного поведения. Кроме того, представлены практические рекомендации по формированию безопасной и здоровой социальной среды в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: конфликт, буллинг, кибербуллинг, агрессивность, медиация, психологическая безопасность, управление классом.

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical causes of conflicts among students in the modern school environment, strategies for constructive conflict resolution, and mechanisms for preventing bullying and aggressive behavior. It also presents practical recommendations for creating a safe and healthy social environment in educational institutions.

Keywords: conflict, bullying, cyberbullying, aggression, mediation, psychological safety, classroom management.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlar sinf jamoasi rivojlanishining o'ziga xos bosqichi hisoblanadi. Konflikt yechimini topish passiv holatdagi munosabatni emas, balki faol

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

va ongli munosabatni talab etadi. Konflikt vaziyatida ko'pchilik impulsiv, ya'ni anglanmagan harakat olib boradi, chunki ularda bu vaziyatda o'zini tutish bo'yicha bilim va malakalar yetishmaydi. Vaziriyat esa o'z ustidan nazorat o'rnatilishini talab qiladi. Demak, konflikt vaziyat o'ylangan qadamlarni so'raydi. Bu – konfliktga bo'lgan ongli munosabat belgisi bo'ladi. Ziddiyatga nisbatan ongli munosabat jarayonida inson o'zini nazorat ostida ushlab tura oladi, ziddiyatga o'z ta'siri o'tkaza oladi, tomonlar hissiyotlarining "ko'pirib" ketmasligi oldini oladi, tomonlarni konstruktiv munosabatlarga chorlaydi, ularni muzokaralar stoliga olib kela oladi, nizoni keltirib chiqargan muammo haqida o'ylash, fikr va mushohada qilish muhitini yarata oladi. Odatda hayotimizda biror narsadan jahli chiqqan, diqqati oshgan, "g'azablangan" va "jilovini qo'ldan bergan" odam bo'lsa, biz unga nisbatan o'zimizni turlicha tutamiz. Biz jahli chiqqan odamdan o'zimizni olib qochishimiz mumkin, nima bo'lganini so'rab, uni tinchlantirishga harakat qilib ko'rishimiz, yoki unga "aql" o'rgatishimiz mumkin, o'zimiz ham uning jahlidan ta'sirlanib, jizzakilik va jahl ishlatishimiz mumkin, konfliktni keltirib chiqargan tomonga "do'q" va "po'pisaga" o'tishimiz mumkin, ularning "adabini" berib qo'yish bizning bosh maqsadimizga aylanishi ham mumkin. Ammo bu yo'llarning barchasi aqqli raso, boshiQ, hayot tajribasi bor odam usullari emasligi ayon. Bu usullarning qo'llanilishi konfliktni chuqurlastiradi, tomonlar orasidagi tang ahvolni yanada qiyinlashtiradi, konflikt yechimidan hammamani boshqa, ya'ni ziddiyatni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan tomonga olib ketadi. Shu bois, konflikt bilan ilk to'qnash kelgan vaqtda quyidagilardan foydalanish darkor:

Birinchi qadam: Konflikt vaziyatni qanday bo'lsa shanday, o'z hissiyotlaridan holi bo'lgan tarzda qabul qiling. Konflikt vaziyat sizga yoqmasligi, sizga qarshi holatni vujudga keltirishi, umuman rejalashtirilmagan holda kelib chiqqan ham bo'lishi mumkin. Ammo aynan siz uning "tutilish" nuqtasini topish passiv holatdagi emas, faol munosabatni talab etishini unutmasligingiz kerak. Manfaatlarni o'zaro yaqinlashtirish va muvofiqlashtirish: Ziddiyatdan chiqib ketish uchun qilinadigan eng birinchi qadam doim mana shu ziddiyatni keltirib chiqargan manfaatlarni o'zaro muvofiqlashtirish mumkinligiga bo'lgan ishonch va harakatdan boshlanadi. Masalan, o'zbeklar "eru-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi" deb bejiz aytishmagan. Oila er va xotin o'rtasidagi ziddiyatlar mavjud bo'lsa ham, ko'p hollarda umumiy manfaatlar tez hal etilishi, manfaatlar asosida tomonlar uyg'unligi vujudga kelishini isbotlaydi.

Hayotdagi har bir vaziyat va holatning ikki ajralmas qismini ta'kidlash lozim: bir tomondan, konflikt, albatta odatdagi holatni vayron etadi, va boshqa tarafdan, konflikt, uning kelib chiqishi bilan vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazadi, natijada yangi vaziyat vujudga keladi, ana shu yangi vaziyatda esa o'ziga ijobiy holat ham mavjud bo'ladi. Shu bois konflikt yangi ijobiy o'zgarishlar uchun ham imkon yaratishi mumkin. Konfliktning ijobiy va yaratuvchanlik qobiliyati konflikt vaziyatni siz qanday maqsadlarga ishlatishingizga bog'liq bo'ladi. Qadimgi xitoyliklar fikricha, konflikt ikki asosiy tushungacha: vayron etish va yaratuvchanlikning yaxlitligidan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, sinf jamoasini boshqarish, guruh dinamikasini to'g'ri yo'naltirish hamda yuzaga keladigan konfliktlarni o'z vaqtida bartaraf etish pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Ziddiyatlarga faqat salbiy hodisa sifatida qaramasdan, ularni shaxsni rivojlantirish, jamoani jipslashtirish va ijobiy o'zgarishlarga erishish vositasi (yaratuvchanlik imkoniyati) sifatida baholash lozim. O'qituvchi o'quvchilarda konstruktiv muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, bulling va tajovuzkorlikning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish hamda har bir bola uchun xavfsiz muhit yaratish orqali barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini muvaffaqiyatli bajaradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A. I., Eshquvvatov T. E., Isnonqulova N. I. Konfliktlar psixologiyasi: fanidan ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 166 bet.
2. Hotamova D. K. Umumiy pedagogika: barcha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – 152 bet.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Ismoil. Talabaning odoblari. – Toshkent: "Ildiz" nashriyoti, 2024. – 144 bet.
4. Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy. Talabalik davrini qanday o'tkazmoq kerak? – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2025. – 96 bet.
5. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/konfliktlarni-boshqarish-tartiblari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.